

YASHAR KAMOL ASARLARIDA PEYZAJ TASVIRI VA UNING TARJIMALARDA AKS ETTIRILISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460921>

Dilfuza SHODMONOVA,
TDSHU 2-kurs magistranti,
Toshkent. O‘zbekiston.
Tel: +998909056994;
E-mail: dilfuzashodmonova29@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola Yashar Kamol asarlari tarjimalaridagi peyzaj tasviriga bag‘ishlangan. Maqolada tarjimonning tabiat manzaralarini qayta yaratish mahorati tadqiq etilgan. Peyzaj tasviri har bir xalqning milliy turmushini nomoyon etish vositasi ekanligi hammaga ma’lum. Maqola yozuvchining “Sevgi afsonasi” va “Ilonni o‘ldirsalar” romanlari tarjimalaridan misollar keltirib o‘tilgan.*

Tayanch so‘zlar: *peyzaj, tarjimon mahorati, ruhiy kechinma, inson va tabiat uyg‘unligi.*

Аннотация: *Статья посвящена мастерству современного турецкого писателя Яшара Камала в описана пейзажа. Отмечается, что мастерство писателя выражается в том, что пейзажные зарисовки глубоко психологичны. Они даны в непосредственном восприятии героя. К анализу привлечены такие произведения автора, как “Убить змею”, “Легенда о горе Агры”.*

Опорные слова: *описание пейзажа, пейзажные зарисовки, гармония человека с природой.*

Abstract: *This paper is devoted to the ability of Turkish writer Yashar Kamol's nature description in his works The passages from the novels of the writer are represented, such as: "Kill the snake". "Legend of Agri mountain". The writer describes the nature view with poetic words, romantic mood and by using various artistry as: comparison and characterization.*

Keywords: *landscape, emotional senses, harmony of a human and nature.*

Badiiy asarlarda berilgan tabiat manzaralari tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etadigan omillardan biri sanaladi. Chunki tabiat manzaralari tasvirida ijodkorning o‘zi qalamga olayotgan makonga munosabati, u joyni kanchalik bilishi, qahramonlari dunyosi va ular yashayotgan muhitni nechog‘lik chuqur his qilishi bilinadi. Shu bois tabiat manzaralari tasviri badiiy asarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki manzaralar tasvirida ijodkorning soʻz qoʻllash mahorati, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi.¹ Badiiy asarlarda tabiat tasvirlari ijodkorning badiiy mahoratini, uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini koʻrsatib beradi.

Dengiz va togʻlar turk adiblari, jumladan, Yashar Kamol asarlarida peyzajning asosiy obʻekti sifatida keladi. Ularning qahramonlari dengiz va togʻlar bilan tutashib ketgan zaminda yashaydi. Yashar Kamol asarlarida dengiz va togʻlar manzarasi muhim oʻrin tutishi, avvalo, turk zaminining oʻziga xos tabiatidan kelib chiqqan.

“Ilonni oʻldirsalar” qissasi quyidagi tasvir bilan boshlanadi:

“Anavarza kayaliklarinin ustinde kartallar doniuyordu, kanat kanada. Çirişsikleri çiçeklerini güneşe uzatmışlardı, ak. Uzaklarda bir bulut bu yana savruluyor, gölgesi bataklık yerini yalayıp Dumlu üstüne kayıp gidiyordu. Çirişsikleri çiçeklerinde arılar, kara, yanardöner arılar, sarıca, bal arıları, boncuklu, mavi arılar... Mavi kengerler dikenlerini kayalikların arasından som mavi çıkarmışlardı” [1,7].

Tabiat manzaralari koʻrinishi kitobxonlarning qahramonlar harakteri, holatini his qilishga imkon berishi jihatidan ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Qahramonlar yashaydigan joy ham ularning hayoti haqida aniq tasavvurlar uygʻota oladi. Peyzaj yaratish yozuvchidan mahorat talab qilganidek, uning tarjimasini ham tarjimondan alohida yondashishni talab qiladi. Yuqoridagi tasvirning tarjimasini keltirib oʻtamiz:

“Anavarza qoyalari uzra burgutlar qanot kergancha aylanib-aylanib uchishardi. Quyoshga yuz tutgan chirishsiklari deb ataluvchi togʻ gullari oppoq boʻlib ochilgan.

Olisda suzib kelayotgan bulutning soyasi botqoqlikni butunlay qoplab, Dumluga kelganda koʻzdan gʻoyib boʻlardı. Chirishsik gullari atrofida turli xil arilar – asal ari, qovoq ari, sariq arilar gʻujgʻon oʻynashardi. Qoyaliklar orasidan kenger gullarining toʻq zangori tikanlari boʻy choʻzib turibdi” [2,5].

Tarjimon tasvirni ishonchli berish bilan birga jumlada qoʻllanilgan yashirin oʻxshatish va jonlantirish kabi nozik badiiy vositalarni toʻla ilgʻagan holda qayta yaratishga muvaffaq boʻlgan.

¹ Хамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. – Тошкент: “EFFECT-D”, 2022. – Б. 86

Yashar Kamol asarlarini o‘qiganimizda uning barcha asarlarida tabiat bosh qahramon sifatida ishtirok etishiga guvohi bo‘lamiz. Yozuvchi tabiat va kishilar bir-biriga bog‘liqligini, ular o‘rtasida uzviylik borligini takidlaydi.

“Her yıl karlar eriyip de bahar gözünü açınca, Ağrıdağında bir ulu tazelik patlayınca, gölün kıyıları, ince kar çizgisinin üstü, keskin, kısa, küt çiçeklerle dolar. Çiçeklerin rengi alabildiğine parlaktır. En küçük çiçek bile mavi, kırmızı, sarı, mor kendi renginde çok uzaklardan bir renk pırlıtısı olarak balkır. Ve keskin kokarlar. Gölün mavi suyu, bakır rengi toprağı baş döndürücü keskin kokularla kokar. Ve bu kokular çok uzaklardan duyulur” [3,9].

Tarjimasi quyidagicha:

“Har yili tog‘dagi qorlar erib, bahor ko‘z ochishi bilan, Og‘ritog‘ uzra qandaydir poklik keza boshlaydi, musaffo havodan insonning ko‘ngli yayraydi. Yupqa qor qatlamining yuzasi pakana dala chechaklari bilan qoplanadi. Chechaklarning rangi, porloqligi ko‘zni qamashtiradi. Uzoqdan eng mayda chechaklar moviy, qizil, sariq, binafsha va boshqa ranglarda tovlanib, jilolanadi, atrofga xushbo‘y ifor taratib, dimoqni qitiqlaydi. Ko‘lning moviy tovlangan suvi, yoqasidagi misrang tuproqning xushbo‘y isi boshni aylantiradi. Bu ifor, xushbo‘y hid uzoq-uzoqlarga taraladi.” [4,7].

Asardagi manzaralar huddi mahoratli musavvir tomonidan chizilganday ko‘rinadi. Tarjimon ham asliyatdagi bo‘yoqdorligini, o‘xshatishlarni to‘laligicha aks ettira olgan. Tarjimon tomonidan qo‘llangan *“bahor ko‘z ochishi”*, *“poklik keza boshlaydi”* jumalari o‘quvchini tabiatning tirik ekanligi, unda qandaydir sehr mavjudligiga ishontira oladi.

*“Tabiat manzaralarini yozuvchi o‘z qahramonlarining taqdiriga ta’sir etuvchi faktor sifatida ham tasvirlashi mumkin”*². Yashar Kamol ham barcha yozuvchilar kabi halollik, mardlik g‘oyalarini ifoda etuvchi qahramonlar holatiga asar va undagi manzalarni uyg‘un tarzda ko‘rsatishga urungan. Xasan (*“Ilonni o‘ldirsalar”*) va Ahmadning (*“Sevgi afsonasi”*) adolatsizliklar tufayli kechirgan iztiroblari ham asardagi tanlangan fasl, tabiat bilan uyg‘unlashib, o‘zgacha ruh bag‘ishlagan.

² Аминова Л. Турк ёзувчиси Я.Камол асарларида бадий маҳорат масалалари. Автореферат. Т., 2003 17-6.

“Ceyhan suyu azalmış, gümüş pırlıtısında akıyordu” [1,11].

Ushbu jumla quyidagicha tarjima qilingan:

“Jayxon daryosining suvi kamayib, kumushday tovlanib oqardi” [2,7].

Bu yerda ham daryo suvining kamayishi Xasanning umidsizligi, tushkun kayfiyati bilan bog‘langan. Yozuvchi asarlaridagi tabiat tasviri qahramonlar bilan uyg‘unlashtirilganligi uchun zerikarli tuyulmaydi, aksincha, asardagi sirlilikni oshiradi.

“Tabiat tasvirini muhim bir voqea yoki hodisaning ro‘y berishdan oldin berilishidan maqsad kitobxonning asardagi voqeani oldindan o‘z tasavvurida jonlantirishga ko‘mak berishdir. Tarjimon esa bunday manzarani tarjimani o‘qiydigan kitobxon yashayotgan mamlakat tabiati tasvirini hisobga olgan holda ish tutishi, tarjima qilinayotgan asarning mazmuni va shakliga zarar yetkazmasdan o‘girishi kerak bo‘ladi”³, – deb yozadi G‘.Salomov. Darhaqiqat, tarjima jarayonida asliyat jumllarini tarjima tili muqobillari bilan almashtirish, sintaksis qoidalaridan chetga chiqmaslik, asarning badiiy konsepsiyasiga e‘tibor bermay erkin tarjima yo‘liga o‘tish san‘at namunasining ishonchli qayta ifodalanmay qolishiga olib keladi.

Tabiat tasviri bilan “Ilonni o‘ldirsalar” qissasi yana tabiat tasviri bilan yakunlanganligi Yashar Kamol asarlarini peyzajlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, degan fikrimizga isbot bo‘ladi:

“Baharda portakal çiçekleri öyle bir kokarmuş ki kokularından insan sarhoş olurmuş...” [1,102].

Tarjimasi:

“Bahorda apelsin gullari shunday bo‘y taratarkanki, ifori kishini mast qilar emish...” [2,75].

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda shunday hulosaga kelish mumkin:

1. Yozuvchilar qahramonlarga munosabatini ham peyzaj tasviridagi ba‘zi detallar orqali ifoda etadilar.

2. Badiiy asarda yozuvchi tabiat tasvirini ma‘lum bir g‘oyani ifodalash uchun qo‘llaydi.

3. Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki manzaralar tasvirida ijodkorning so‘z qo‘llash

³ Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.86.

mahorati, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi. Badiiy asarlarda tabiat tasvirlari ijodkorning badiiy mahoratini, uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ko‘rsatib beradi.

REFERENCES

1. Yaşar Kemal. Yılanı öldürseler. – İstanbul: Yapı Kredi Yayınları, 2011.
2. Яшар Камол. Илонни ўлдирсалар, (Таржима). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.
3. Yaşar Kemal. Yılanı öldürseler. – İstanbul: Yapı Kredi Yayınları, 2021.
4. Яшар Камол. Севги афсонаси, (Таржима). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.
5. Хамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. – Тошкент: “EFFECT-D”, 2022.
6. Аминова Л. Турк ёзувчиси Я.Камол асарларида бадий маҳорат масалалари. Автореферат. Т., 2003.
7. Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966.
8. Namidov, X., & Abduraximova, D. (2019). Приведение фразеологизмов в переводе с японского на узбекский. *Sharqshunoslik*, 4(4), 100-112.
9. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
10. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
11. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
12. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
13. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.